

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT
UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**



**FILOLOGIYA TA‘LIMI
MASALALARI:
MUAMMO VA UNING
INNOVATSION YECHIMLARI**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIV-AMALIV ANJUMAN
MATERIALLARI TO‘PLAMI**

II-QISM



**OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**“FILOLOGIYA TA'LIMI MASALALARI: MUAMMO VA UNING YECHIMLARI”
MAVZUSIDAGI XALQARO-AMAIL ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI**

II-QISM

2022-YIL 11-MAY

**“ВОПРОСЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМНЫЕ
ВОПРОСЫ И ИХ ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ” СБОРНИК
МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

ЧАСТЬ II

11 МАЯ 2022 ГОДА

**“ISSUES OF PHILOLOGICAL EDUCATION: PROBLEM ISSUES AND
THEIR INNOVATIVE SOLUTIONS” COLLECTION OF MATERIALS OF THE
INTERNATIONAL CONFERENCE**

PART II

MAY 11, 2022

FERGANA 2022

Mas'ul muharir

Qayumov Abduvahob, f.f.b.f.d., PhD

Xalqaro bazalar bo'yicha mutaxassis

Sobirov Otabek Foziljon o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Tahrir kengashi a'zolari

Qosimov Abdug'opir - f.f.d., professor

Jo'rayev Habibullo - f.f.d., professor

Sabirdinov Akbarali - f.f.d., professor

Yulchiyev Qaxxor - f.f.d., dotsent

Muhammadjonova Go'zalxon - f.f.n., dotsent

Rustamova Ibodatxon - f.f.n., dotsent

Rahimov Zokir - f.f.n., dotsent

Xo'jayev Sidiqjon - katta o'qituvchi

Jo'rayeva Manzura - f.f.b.f.d., PhD

Dehqonova Ma'suma - f.f.b.f.d., PhD

Oripova Gulnoza - f.f.b.f.d., PhD

Umurzaqov Rustamjon - f.f.b.f.d., PhD

Xamidov Mirolim - f.f.b.f.d., PhD

Xasanova Xikmatoy - o'qituvchi

Ahmadjonova Oqila - o'qituvchi

Mahmidjonov Shohruh - o'qituvchi

МУНДАРИЖА

| | | |
|---|---|----|
| Муминов С., Аҳмаджонова Л. | МУТОЛАА САНЪАТИНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ТАДҚИҚИ | 10 |
| Искандарова Ш., Қўлдашева Д. | ФУРҚАТ ҲАЗАЛЛАРИ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК ҚИММАТИНИ ОШИРИШДА СИНОНИМЛАРНИНГ РОЛИ | 14 |
| Абдупаттоев М., Абдурахмонов В. | АЛЬТЕРНАТИВ СЎРОҚ ҒАПЛАРДА БИСУБСТАНТИВАЦИЯ | 18 |
| Судаба Г. | ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПОТЕНЦИАЛЬНОЙ ЛЕКСИКИ СТУДЕНТОВ ВУЗА | 22 |
| Osman K. | CURRENT ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF FOREIGN SPEECH STUDENT ACTIVITIES | 32 |
| Mirzayeva S., Teshaboyeva X. | O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA BOG'LOVCHILAR SEMANTIKASI | 36 |
| Zokirov M. | AХВОРОТЛASHGAN JAMIYATDA TIL KO'NIKMA LARINING SHAKLLANISHI XUSUSIDA | 39 |
| Рахмонов М., Гафурова С. | НЕКОТОРЫЕ ДАННЫЕ О КОМПОЗИЦИИ «ТАВАРИХИ ГУЗИДА – НУСРАТНАМЕ» И ЕЕ СОКРАЩЕННОЙ ВЕРСИИ | 43 |
| Ибрагимова Э., Дусматов Х., Шарафутдинова Н., Ўринбоева Э. | МАНФИЙ ХАРАКТЕРГА ЭҒА БЎЛГАН СУБЪЕКТИВ БАҲО МОДАЛЛИГИ ҲАМДА КОНТЕКСТ ХУСУСИДА | 46 |
| Ганиева Д. | ТУРЛИ ТИЗИМДАГИ ТИЛЛАР ФЕЪЛЛАРИДА ГРАММАТИК КАТЕГОРИЯЛАР | 50 |
| Қурбонова С | ПСИХОЛИНГВИСТИКАДА ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ТАҲЛИЛИГА ДОИР | 53 |
| Кахарова И. | ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА МОДАЛ СЎЗЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШ ДАРАЖАСИ | 56 |
| Қўлдашев Н. | ЎЗБЕК ТИЛИ ЭКОЛОГИЯСИ | 60 |
| Қурбанбаев И. | ДИЛРАБО МИНГБОЕВА ШЕЪРИЯТИДА СИФАТЛАШ СЕМАНТИК ВОСИТА СИФАТИДА | 63 |
| Амонов М. | ТУРКИЙ ТИЛЛАРДАГИ АРАБЧА ЎЗЛАШМАЛАР ХУСУСИДА | 66 |
| Ганиева Ш. | МОРФЕМ-МОРФОЛОГИК САТҲ БИРЛИКЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ МУАММОЛАРИ | 71 |
| Saidxonov M. | ISHORA FE'LI BELGI SIFATIDA | 74 |
| Aliyeva Sh. | TIL BIRLIK LARINING NUTQQA KO'CHISHI | 78 |
| Alimova Z. | "SADDI ISKANDARIY" ASARIDA FORSIY IZOFALI BIRIKMALARNING QO'LLANILISHI | 81 |
| Яркинова Б. | ЯҚИН ТУРКИЙ ТИЛЛАРДАН ТАРЖИМА ХОССАЛАРИ | 84 |
| Muminov S., Abdug'offorova S. | QOBILJON SHERMATOV ASARLARIDA BOLALAR NUTQINING FONETIK O'ZGACHALIKLARI | 88 |
| Гусейнова Э. | СХОДНЫЕ И РАЗНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОСТЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОМ И ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКАХ | 91 |
| Ikramova M. | "MIRZO ULUG'BEK" TRAGEDIYASIDA ULUG'BEK TIMSOLIGA XOS BO'LGAN AYRIM MUROJAAT SHAKLLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI | 93 |
| Акромов В. | FEATURES OF TOURISM TERMINOLOGY IN FRENCH | 96 |

| | | |
|-------------------------------|--|-----|
| Mashrapova G. | O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA ASOSIY PERSONAJLAR: SAFARGA YO'LLOVCHI | 336 |
| Есебаев М. | «ҒӘРИП-АШЫҚ» ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛЫҚ ЛИРО-ЭПИКАЛЫҚ ДӘСТАНЫ, ГЕНЕЗИСИ, ЭВОЛЮЦИЯСЫ ХӘМ ТАРИЙХЫЙ ДЕРЕКЛЕРИ | 339 |
| Мадрахимова Н. | ХАЛҚ ЭПОСИДА БАДИИЙ ЭТНОГРАФИЯ МАСАЛАСИ (“Ширин билан Шакар” достони мисолида) | 343 |
| Умурзаков Р. | ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИДАГИ БОЛАЛИК ТАСВИРИГА ДОИР | 346 |
| Рўзимбеав С. Сапарбаева Л. | ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕАЛИЙ В УЗБЕКСКИХ ЗАГАДКАХ | 349 |
| Xajiyeva D. | ERKIN VOHIDOVNING “OLTIN DEVOR” KOMEDIYASIDA XALQ MAQOLLARINING QO'LLANISHI VA XALQCHILLIK | 352 |
| Abdullayeva N. | MAQOLLARDAGI MUSHTARAKLIK XUSUSIYATLARI | 356 |
| Mahmudjonzoda Z. | MIF VA ASOTIRLARDA AYOL OBRAZI XUSUSIYATLARI | 360 |

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6528946>

Abdullayeva Nilufar Nasulloyevna,
BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq janrlaridan biri bo'lmish maqol haqida so'z boradi, chunonchi, maqol janr sifatida nutq holatini qanday tasvirlashi mezonlari, maqol janrining prototipini belgilovchi xususiyatlar, maqolning aktuallashuv nazariyasini taqdim etuvchi maqol qurilishi tushuntiriladi.

Tayanch ibora va tushunchalar: maqollardagi qolip va turdoshlik hodisalari, maqollarning asosiy belgilari, maqollardagi mushtaraklik.

Аннотация: В данной статье рассматривается пословица, являющаяся одним из жанров речи, в частности, критерии того, как пословица описывает состояние речи как жанр, признаки, определяющие прототип жанра пословицы, структура пословицы.

Основные термины и понятия: форма и сходства в пословицах, основные черты пословиц, общие черты в пословицах.

Abstract: This article discusses the proverb, which is one of the genres of speech, in particular, the criteria for how the proverb describes the state of speech as a genre, the features that determine the prototype of the proverb genre, the structure of the proverb.

Key words: patterns and similarities in proverbs, main features of proverbs, commonalities in proverbs.

Kirish. – Buyuk ajdodlarimizning noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakat dasturi bo'lishi kerak. Ayni paytda biz O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri uchun poydevor yaratmoqdamiz. Bu jarayonda eng yaqin yordamchilarimiz ustoz va murabbiylar, ziyolilar va ijodkorlardir. Barchamiz eng aziz farzandlarimizning hayotini, taqdirini ustoz va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Ana shu bebaho boylikni asrab-avaylayotgan, kelajakni barpo etayotgan bu insonlarga barchamiz munosib e'tibor qaratishimiz kerak, – deydi Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Biz, ta'lim tizimi vakillari, qilinayotgan murojaatlarga javob berish uchun: ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan yangi vazifalarni ilgari surishimiz; o'quvchilar va talabalarda fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rag'batlantiradigan yangi ishlar, qo'llanmalarni yaratishimiz lozim. Quyida taqdim etilayotgan ish bilan biz o'quvchilarimizning fundamental bilimlarini boyitishga o'zimizning kichik hissamizni qo'shamiz deb umid qilamiz.

Chet tillarini o'rganish/o'rgatish bugungi kun yoshlarini tarbiyalash hamda mamlakatning xalqaro hamjamiyatda integratsiyalashuvida asosiy omil hisoblanadi. Tilni yaxshi o'zlashtirish uchun, shubhasiz, u haqida keng bilimga ega bo'lish kerak, bu esa uni tashkil etuvchi barcha elementlarni o'rgatish/o'rganishni talab qiladi. Ko'pincha bu elementlar tilni o'rganish motivatsiyasining asosi hisoblanadi, chunki ular ma'lum ma'noda tilning jozibasi va go'zalligini tashkil qiladi. Shu kabi jozibador janrlardan biri sanalmish –

xalqimizning turmush tarzi, tafakkuri, madaniyati, urf-odatlar va an'analarini o'zida mujassamlashtirgan – maqolni tahlilimizning obyekti sifatida oldik.

Asosiy qism: Maqollar barcha tillarda mavjudligini bilamiz. Lekin maqolning o'zi nima?

Bizga ma'lumki, maqollar ma'lumotlarga boy bo'ladi va ushbu jihat ularning ta'sirini kuchaytiradi. Maqollar oddiy tasvirlar bilan ifodalangan bo'lsada, juda chuqur ma'noni anglatadi, sababi ular o'zlarida kundalik hayotimiz, undagi haqiqatlarni aks ettiradi. Maqollarning insonlar bilan muloqotda bo'lgan ta'sir kuchiga necha marotabalab guvoh bo'lganmiz, chunki og'zaki so'zlashuv, fikr almashinuvda o'z o'rnida qo'llanilgan maqol har doim ham samarali bo'lgan.

Biz, maqolni bilish shaxsning lingvistik saviyasi va tajribasini aks ettiradi, deb hisoblaymiz. Har bir inson hayotiy tajribasini oshirish, ko'paytirish bilan bir vaqtda o'zining maqollar to'plamini ham boyitadi. Maqollar o'zining sodda shakli, turli xil vaziyatlar va hukmlarni aks ettirishi, tasvirdagi aniqlik, talqindagi moslashuvchanlik bilan bizni har doim hayratda qoldirgan. Ular ba'zan shunchaki oddiy bir gap, ba'zan qofiyaga solingan she'riy satrdir.

Biz yuqorida maqollar barcha tillarda mavjud dedik, xo'sh, fransuz tilining maqol mexanizmi o'zbek tilidagi maqol mexanizmidan qanchalik farq qiladi? Ushbu savolga javob olish uchun biz dastlab bu ikki tilda maqollarga berilgan ta'riflarga, keyin esa maqollar qiyosiga murojaat qildik.

Darhaqiqat, biz maqolni qiyosiy nuqtai nazaridan o'rganar ekanmiz, biz ayni paytda o'xshashlik va tafovut, universallik va madaniy o'ziga xoslik, ma'nolarning yaqinligi va yiroqliligiga duch kelamiz. Ha, bu qiziq, lekin bir vaqtning o'zida murakkab hamdir. Nega qiziq va nega qiyin? Qiziqarli jihati shundaki, maqol til va madaniyat uchrashadigan nuqtadir, shuning uchun maqolni o'rganish bizni diskursiv amaliyotlar va madaniy qadriyatlar haqida ma'lumot olish va berishga undaydi. Qiyin, chunki maqol har doim ham ma'nosi aniq bo'lmaydigan jumboqdir va agar siz boshqa bir madaniyat vakili bo'lsangiz, boshqa bir madaniyatdagi maqolni tushunish sizga qiyinchilik tug'diradi. Shuningdek, boshqa tildagi maqolni tushunish aksariyat hollarda maqol tuzilishi haqidagi bilimga ega bo'lishni ham taqozo etadi.

So'nggi yillarda maqollarni o'rganish, ayniqsa, semantika sohasida ancha ilgiriladi. Maqollar semantik olimlar orasida yangidan qiziqish uyg'otayotganining sababi so'nggi paytlarda stereotip va turdoshlik hodisalariga oid o'zgarishlarning ko'zga tashlanib borayotgani bilan bog'liqdir. Tilshunoslar maqolning umumiy xususiyatini tan olishsada, ular har doim ham maqol tushunchasi haqida bir xil fikrda emaslar. Kleiber maqolning ikki tomonlama maqomi va umumiy iboraga asoslangan semantik ta'rifini topish niyatida: "[...] maqollar umumiy ma'noli jumladir [...]", deydi [2, 42]. Boshqalar esa bu umumiylikda grammatik sxemani, turg'unlik xususiyatlarini ko'radilar.

O'zbek tilshunoslarining fikricha, "Maqol bir necha so'z bilan ifodalangan axloqiy yoki tajribaga asoslangan haqiqatni yoki amaliy falsafaning tasviriy ifodasini yoki esda qolarli so'z yoki gapni, hatto maqolga o'tgan bayt yoki mashhur qo'shiqni ifodalaydi. Maqol – bu aniq ifodalangan formula bo'lib, odatda metafora shaklida bo'ladi hamda xalq donoligi, hayotiy tajribalarni aks ettiradi".

Fransuz tilshunolarining ta'riflariga yana bir bor tayanadigan bo'lsak, maqol "umumiy qo'llaniladigan qisqa va rang-barang jumla bo'lib, u sog'lom fikr, tajriba, haqiqat yoki maslahatni ifodalaydi va so'zlovchi tomonidan murojaat sifatida yangraydi, ommabop tarzda foydalaniladi".

Odatda, o'z ona tilida so'zlashuvchilar maqolning lingvistik mezonlarini e'tiborga olishmasada, uning ritm, qofiya, mazmun kabi bir nechta belgilovchi xususiyatlarini o'z sezgilari orqali anglab olishadi. Tilshunoslar bu sezgi bilan qanoatlanmasdan, maqolning semantik, sintaktik va argumentativ jihatlarini ham talqin etishadi.

Maqolni nutq janri sifatida tavsiflash unga nutq birligi sifatida qarash imkonini beradi. O'zbek va fransuz tillaridagi maqol janrining prototipik xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu janrning, bir tomondan, ikki tildagi umumiy xususiyatlari va ikkinchi tomondan, har bir tilga xos bo'lgan jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi.

Oxunjon Safarov o'zining "O'zbek xalq og'zaki ijodi" asarida maqolga shunday ta'rif beradi: "Maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir" [3, 291].

Bu kabi ta'riflarni quyida berilgan namuna misolida tahlil qilamiz:

Fransuz tilidagi : "Qui prête à l'ami perd au double" maqoli o'zbek tiliga "Do'stingga qarz berib, do'stingdan ham, pulingdan ham ayrilasan" yoki "Qarz bersang, do'st ko'payar, Talab qilsang – dushman" kabi tarjima etiladi, ko'rib turganimizdek, bu tarjimalardan maslahat yoki ogohlantirish ma'nolari tushuniladi, ya'nikim, maqol – do'stga qarz berganimizda, qarzga berilgan narsa va bir vaqtning o'zida do'stimizni ham yo'qotishimiz mumkinligidan ogohlantiradi. Albatta, biz bu haqiqatni o'zimiz boshimizdan kechirmagan bo'lishimiz mumkin, lekin maqoldan anglashilgan ma'no yordamida bu kimlarningdir hayotiy tajribasi asosiga atab aytilganini bilamiz va shu holatga tushib qolmaslik uchun harakat qilamiz.

Ikki tilda bayon etilgan namunalardan ko'rinib turibdiki, maqollarning ma'nosida mushtaraklik bor, ya'ni ular nasriy tuzilishga ega (vaholanki, o'zbek tilidagi ikkinchi ekvivalent poetik tuzilishga ham egadir); har ikkisida ham obrazlar mavjud; nutqiy vaziyatga ko'ra qo'llanadi; o'ziga xos til xususiyatlariga ega; har birida xulosa mavjud; har biri o'z ma'nosida qo'llanilgan, ko'chma ma'no kuzatilmaydi; maqollarning xarakteri umumlashgan holda namoyon bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, turli tillar maqollaridagi paremik obraz va mazmun mushtarakligi ikkala xalqning tarixi va yoki ijtimoiy hayotidagi mushohadalar, amaliy tajribalar, haqiqatlar, hikmatlarda o'xshashlik borligini anglatrsa, sintaktik tuzilishdagi farq ularning butunlay boshqa tillarda yaratilganligidan dalolat beradi. O'zbek va fransuz tillaridagi maqollarni qiyosiy o'rganish, turli jihatlardan tadqiq qilish har ikki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, dunyo va inson haqidagi dono hukmlarini, ularning tasavvurlari, e'tiqodi, falsafiy va badiiy tafakkuri o'rtasidagi mushtaraklik hamda tafovutlarni ochishga imkon beradi.



Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Ta’lim sohasidagi islohotlar: O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirishning yangi bosqichi sari”. Ta’limni takomillashtirish va ilm-fan sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan videokonferensiya. 30 oktyabr, 2020 yil.
2. Kleiber G. Sur le sens des proverbes. Strasbourg. Persée, 2000.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent. “Musiqqa”, 2010 yil.
4. Abdullaeva N.N. Maqol va hikmatli so‘zlarning paremiologik maydoni. “So‘z san’ati” xalqaro jurnali. 4-jild, 2-son. Toshkent, 2021.
5. Abdullaeva N.N. Poetik uslubning fonetik talaffuzni tuzatishdagi o‘rni: poetik o‘yindan fonetik o‘yinga. “Til, adabiyot, tarjima, adabiy tanqidchilik: zamonaviy yondashuvlar va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Buxoro, 2022